

GREATER CINCINNATI COVID-19 NI BAHOLASH JOYLARI

18 mart 2020 yil

OAV UCHUN KONTAKT MA'LUMOTLARI:

Christa Hyson, MPH
Senior Manager, External Relations
(513) 247-5254

DARHOL CHIQRISH UCHUN

GREATER CINCINNATI COVID-19 NI BAHOLASH JOYLARI

Axborot tezkorlik bilan o'zgarayotgan vaqtlarda sog'liqni saqlash sohasi xodimlarimizni himoya qilish uchun bu yo'riqnomalarga amal qilish juda muhim

Hududimiz salomatlik va sog'liqni saqlashga ta'sir qiluvchi masalalarda hamkorlikda ishlash bo'yicha uzoq tarixga ega. COVID-19 kasalligining tarqalishi esa bundan istisno. The Health Collaborative kompaniyasining Greater Cincinnati Halokatlarga tayyorlik kaolitsiyasi orqali biz COVID-19 kasalligiga qarshi barcha Kaolitsiya a'zolari orasida hududiy muvofiqlashtirish va hamkorlikni ishlashni yo'lga qo'ya olamiz.

Hududimizdagi bemorlar va rezidentlar sog'lig'ini saqlash uchun quyidagi yo'riqnomalarga amal qiling. Kasalxonalarimizning ortiq darajada to'lib ketmasligi va eng zaif kasallarimizning birinchi bo'lib davolanishi uchun bu juzda zarurdir. Yengil simptomlarga ega bo'lgan ko'pgina shaxslarni tekshiruvdan o'tkazish shart bo'lmaydi va ularga uylaridan chiqmagan holda ixtiyoriy karantinda bo'lish tavsiya qilinadi.

Agar sizda simptomlar bo'lsa va o'zingizni kasallikka chalingan, deb gumon qilsangiz:

-
- **Tekshiruvdan o'tish uchun favqulodda vaziyatlar Departamentiga BORMANG.**
- **Asosiy davolovchi shifokoringizga murojaat qiling.**
- **Agar sizda bunday shifokor bo'lmasa, yaqiningizdagi shoshilinch tibbiy yordam bo'limiga qo'ng'iroq qiling.**
- **Agar sizga tekshiruvdan o'tish buyurilsa - Shifokortingiz keyingi ko'rsatmalarni beradi. Siz Shifokor tavsiyasiz tekshiruvdan o'tkazilmaysiz. Barcha COVID-19 kasalligiga tekshiruvlar uchun avvaldan tayinlash talab qilinadi. Qo'shimcha ma'lumotlar olish**

uchun Asosiy davolovchi shifokoringizga yoki yaqiningizdagi shoshilinch tibbiy yordam bo'limiga murojaat qiling. Yana Shifokorning tekshiruvdan o'tish tavsiyasiz kasalxonaga kelmang.

Greater Cincinnati rezidentlar uchun qilishlari kerak bo'lgan eng muhim narsa bu kasallikning oldini olish choralarini davom ettirishdir:

- Mahalliy va davlat organlari tomonidan bayon qilib berilgan kishilarning bir-birlaridan masofada bo'lish tartiblariga amal qiling.
- Qo'llaringizni tez-tez sovun va suv bilan kamida 20 soniya davomida yuvib turing.
- Yo'talganingizda va aksirganingizda yuzingizni tirsagingiz yoki bilagingiz bilan yoping.
- Agar o'zingizni yaxshi his qilmasangiz, ishga/maktabga/mashg'ulotlarga bormang.
- Agar siz yuqori xatar ostidagi shaxs bo'lsangiz, [ushbu qo'shimcha ehtiyot choralarini](#) ko'rib chiqing.

COVID-19 kasalligi haqida ko'proq ma'lumotlar olish uchun <https://healthcollab.org/covid-19/> saytiga kiring

-###-

The Health Collaborative tashkiloti haqida: The Health Collaborative bu yanada sog'lom kishilar, yaxshoroq davolash va kamroq harajatlarga olib keluvchi ma'lumotlar asosidagi yaxshilanishlarni ilgari suruvchi notijorat tashkilotidir. The Health Collaborative tashkiloti haqida ko'proq ma'lumotlar olish uchun healthcollab.org saytiga tashrif buyuring